



FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-dekabr*



FARG'ONA VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2025- yil 1-yanvar holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Farg'ona viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga doimiy aholi soni 4 144,7 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 83,2 ming kishiga yoki 2,0 % ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni 2 354,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 56,8 %), qishloq aholisi soni 1 789,8 ming kishi (43,2 %) ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

4 144,7 ming kishi

Tabiiy o'sish

(+) 83,2 ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar


**56,8%**

Qishloq

**43,2%**


Farg'ona viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar

2024- yil yanvar-dekabr




Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni


2025- yil 1- yanvar holatiga




2025- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, viloyat doimiy aholisi sonining 31,7 %i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 55,8 %i mehnatga layoqatli yoshdagilar va 12,5 %i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Aholining yosh guruhlari va jinsi bo‘yicha taqsimlanishi
2024- yil 1- yanvar holatiga


2024- yil 1- yanvar holatiga Farg‘ona viloyatining doimiy aholisi tarkibini jinsi va yosh guruhlari bo‘yicha (65 yoshgacha bo‘lganlar 5 yillik yosh intervalida, 65 va undan yuqori yoshdagilar esa jamlangan holda) tahlil qilinganda, erkaklar tarkibida 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 249,7 ming kishini tashkil etgan. Erkaklar tarkibida eng kam aholi soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelib, 77,8 ming kishini tashkil etdi. Shuningdek, ayollar tarkibida ham 4 yoshgacha bo‘lgan qizlar eng yuqori ko‘rsatkichni, ya’ni 233,2 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, eng kam ayollar soni 60-64 yoshlilar hissasiga to‘g‘ri kelgan, ya’ni 85,2 ming kishini tashkil etgan.

Tug‘ilishda kutilayotgan umr davomiyligi
2023- yil uchun



2023- yil uchun Farg‘ona viloyati aholisining kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 75,7 yoshni tashkil etgan. Erkaklar uchun 73,9 yoshga, ayollar uchun esa 77,5 yoshga teng. Shahar joylar 75,2 yosh qishloq joylar uchun kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 76,4 yoshni tashkil etgan.

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi
2025- yil 1- yanvar holatiga

Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi
2025- yil 1-yanvar holatiga, ming kishi

	2024- yil	2025- yil	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 061,5	4 144,7	102,0
<i>shaharlar:</i>			
Farg'ona	321,8	328,4	102,1
Qo'qon	308,1	314,5	102,1
Quvasoy	101,2	103,2	102,0
Marg'ilon	253,5	257,9	101,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	228,4	233,1	102,1
Qo'shtepa	208,0	213,3	102,5
Bag'dod	233,0	238,2	102,2
Buvayda	247,2	252,7	102,2
Beshariq	242,8	247,2	101,8
Quva	275,8	280,7	101,8
Uchko'prik	241,4	247,0	102,3
Rishton	216,9	221,2	102,0
So'x	83,9	86,1	102,6
Toshloq	217,6	221,9	102,0
O'zbekiston	236,4	240,4	101,7
Farg'ona	221,5	226,0	102,0
Dang'ara	177,1	181,0	102,2
Furqat	127,1	129,8	102,1
Yozyovon	119,8	122,1	101,9

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi

2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




Farg'ona viloyatida 2025- yil 1- yanvar holatiga 1 kvadrat kilometrda o'rtacha 613,2 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 12,3 kishiga ortgan (2024- yil 1- yanvarda 1 kv.km.ga 600,9 kishi).


Hududlar bo'yicha qaraydigan bo'lsak, aholi zichligining eng yuqori ko'rsatkichi Marg'ilon shahrida 4 957,7 kishi, Qo'qon shahrida 4 888,1 kishi, Farg'ona shahrida 3 036,2 kishi, Toshloq tumanida 914,5 kishi, Uchko'prik tumanida 911,0 kishi, Buvayda tumanida 905,7 kishini tashkil etgan bo'lsa, eng past ko'rsatkichlar Yozyovon tumani 300,0 kishi, Beshariq tumanida 319,4 kishi, O'zbekiston tumanida 356,7 kishi, Oltiariq tumanida 369,5 kishi, Farg'ona tumanida 380,5 kishini tashkil etgan.

Farg'ona viloyati bo'yicha aholi zichligi dinamikasi

2025- yil 1- yanvar holatiga, 1 kv.km.ga to'g'ri keladigan aholi soni, kishi




QAYD ETILGAN TUG'ILISHLAR




Hududlar kesimida tugilish soni va promille

2024- yil yanvar-dekabr




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 103,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1 000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 25,1 promilleni tashkil etdi hamda bu ko'rsatkich 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,4 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 26,5 promilleni tashkil etgan).

VAFOT ETGANLAR



Hududlar kesimida vafot etganlar soni va promille


2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 17,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,6 promilleni tashkil etgan).


O'limning asosiy sabablar bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar- dekabr, kishi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan o'lim holatining 61,0 %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,2 %i – o'simtalardan, 5,2 %i – nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,3 %i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,3 %i – ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan, 13,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR




Hududlar kesimida nikohlar soni va promille

2024- yil yanvar-dekabr, birlik




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 29,2 mingta nikoh qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikoh koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,6 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 7,7 promille bo'lgan).

NIKOHDAN AJRALISHLAR



Nikohdan ajralishlar soni va promille

2024- yil yanvar-dekabr, birlik



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 4,8 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,2 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,2 promillega kamayganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 1,4 promille bo'lgan).

AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)


2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni 13 362 kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami 15 384 kishini tashkil etib, migratsiya saldosini minus 2 022 kishini tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni

2024- yil yanvar-dekabr, kishi


	Ko'chib kelganlar Jami	Ko'chib ketganlar Jami
Farg'ona viloyati	13 362	15 384
<i>shaharlar:</i>		
Farg'ona sh.	4 233	2 765
Qo'qon sh.	1 928	1 739
Quvasoy sh.	505	426
Marg'ilon sh.	783	1 707
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq t.	224	507
Qo'shtepa t.	889	666
Bag'dod t.	115	430
Buvayda t.	249	437
Beshariq t.	202	696
Quva t.	415	724
Uchko'prik t.	217	603
Rishton t.	252	579
So'x t.	643	165
Toshloq t.	538	741
O'zbekiston t.	297	962
Farg'ona t.	892	961
Dang'ara t.	417	619
Furqat t.	373	391
Yozyovon t.	190	266

JAMI KO'CHIB KELGANLAR




Ko'chib kelganlar soni va promille

2024- yil yanvar-dekabr, kishi




2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 13,4 mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti 3,3 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 1,1 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2,2 promille bo'lgan).

JAMI KO'CHIB KETGANLAR



Ko'chib ketganlar soni va promille

2024- yil yanvar-dekabr, kishi



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 15,4 mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1 000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyenti 3,7 promilleni tashkil etgan hamda 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,8 promillega ko'payganligi kuzatildi (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2,9 promille bo'lgan).

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi

Tel: 73 241-97-74